

“Iste'molchi”dan shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini lozim darajasida bajarishini talab etish;

ushbu shartnoma shartlari bajarilmaganda yoki buzilganda “Iste'molchi” tomonidan yetkazilgan amaldagi zararni belgilangan tartibda qoplatish;

avariya rejimida “Iste'molchi”ni elektr tarmog'idan uzib ko'yish;

EHNATga ulangan yoki elektr energiyasiga oldindan haq to'lash qurilmasiga ega hisobga olish pribori bo'lgan iste'molchini oldindan to'langan haq tugaganda elektr tarmoqlaridan uzish.

Elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlaridagi avariylarning oldini olish va bartaraf etish yoki odamlarning xavfsizligini ta'minlash ishlari bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarurati bo'lganda, “Iste'molchi” bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan energiya yetkazib berishni to'xtatish yoki cheklash.

“Ta'minotchi korxonaga” qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

Mazkur shartnomaga asosan “Iste'molchi”ni elektr tarmoqlaridan uzilgandan keyin yuzaga kelgan xolat uchun “Ta'minotchi korxonaga” javobgar bo'lmaydi.

#### 4.4. “Ta'minotchi korxonaga” quyidagilarga majbur:

“Iste'molchi”ga elektr energiyasini elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan xajmda muntazam yetkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi ob'ektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmog'i xo'jaligi ob'ektlarini rejali tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lgan uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

“Iste'molchi”ni elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish;

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni xajmi va vaqti ko'rsatilgan holda “Iste'molchiga” oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi “Iste'molchi”ning arizasini, ariza olingan kundan boshlab

10 kundan kechiktirmay ko'rib chikish, bartaraf etish va batafsil javob yuborish;

“Iste'molchi”ga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

“Iste'molchi”ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmagan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko'rsatgan holda, iste'molchiga xabar qilish;